

FARG‘ONA VODIYSIDA OILA MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLINISHIDA “HIDOYA” ASARINING O‘RNI

Xayitxon Maxammadjonovna ISMOILOVA

katta o‘qituvchi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada Farg‘ona vodiysida oila munosabatlarini tartibga solishda Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asarining ahamiyati bayon qilingan. “Hidoya”ning ikkinchi juzida yoritilgan emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalar tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, oila, fiqh, Burhoniddin Marg‘inoniy, “Hidoya”, ota-ona, farzand.

FARG‘ONA VODIYSIDA OILA MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLINISHIDA “HIDOYA” ASARINING O‘RNI

Хайитхан Махаммаджоновна ИСМАИЛОВА

Старший преподаватель

Андижанский филиал Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

Аннотация:

В статье подчеркивается важность труда «Аль-Хидоя» Бурхануддина аль-Маргинани в регулировании семейных отношений в Ферганской долине. Во второй части «Аль-Хидоя» анализируются такие вопросы, как грудное вскармливание, развод, освобождение рабов, определение родословной подкидыша, вопросы о находках, беглых рабах, пропавших без вести, партнерских отношениях и имуществе «вакуф» (дар).

Ключевые слова: Ферганская долина, семья, фикх, Бурхануддина аль-Маргинани, Аль-Хидоя, родители, дети.

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o‘zbek xalqining ham madaniy va ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlari ming yillar mobaynida Sharqning ma’naviy boyliklari sifatida yetib kelgan. Ayniqsa, hozirgi Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari) xilma-xil diniy e’tiqodlar, dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan mintaqaga hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, Farg‘ona vodiysi qadimiy urf-odat va qadriyatlarga boy zamindir.

Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o‘z aksini topgan [2;7]. Miloddan avvalgi davrlarda Farg‘ona vodiysidagi mavjud diniy tasavvurlar dastlabki oilaviy munosabatlarni tartibga

solishga xizmat qildi. XII asrgacha zardushtiylik ibodatxonalari, buddizm stupalari, xristiyan cherkovlari, yahudiy ibodatxonalari va musulmon masjidлари joy olgan. Avesto yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid asosiy manbadir [2;85].

Yurtimiz hududiga islom dini kirib kelishi munosabati bilan otashparastlik dini va undagi oilaviy qadriyatlar o'zgardi. Hozirda esa ushbu qadriyatlarning aksariyati ahamiyatini yo'qotgan. Islom tarqalishi natijasida amalga oshgan diniy globallashuv ta'sirida yangicha diniy ma'naviyat, an'analar, qadriyatlar tizimi shakllandi [1;21]. Vodiy aholisi musulmon dini, sunniylik, hanafiya yoki Imom A'zam mazhabiga e'tiqod qiladi [3;39]. Islom dinining muqaddas manbai hisoblangan Qur'oni karimning 70 ga yaqin oyatlarida oila masalasi yoritilgani haqida ulamolar fikr bildirganlar. Ya'ni Niso, Moida, Mumtahana, Ahzob, Rum, Baqara, Taloq, An'om, Isro, Ankabut, Ahqof, Ra'd, Luqmon, Nahl, Muhammad kabi suralarda oilaning muqaddasligi, nikoh, er-xotin munosabatlari, ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlar, qarindoshlik, oiladagi tarbiya, mulkiy munosabatlar va meros masalalari bayon qilingan.

Butun musulmon olamida musulmon huquqi – fiqh bo'yicha eng aniq, izchil mukammal asar sifatida Burhoniddin al-Marg'iloniyning "al-Hidoya" asari vodiy oila munosabatlarini tartibga soluvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. "Hidoya" to'rt juzdan iborat bo'lib, ikkinchi juzi oila munosabatlarini tartibga solish bo'yicha fikhiy masalalar, ya'ni nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash [4;592] kabi masalalar bayon etilgan. Ushbu asardan ruslar Markaziy Osiyoni bosib olib, shariat qozilari bekor qilinib, sovet sud sistemasi joriy qilinguniga qadar shariat qozilari tomonidan foydalanib kelingan. Hozir ham islom shiati asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlari huquqshunosligida bu asardan keng foydalaniladi [7].

O'rta asrlarda din va musulmonlarning dalili, isboti darajasiga erishgan allomalardan biri Burhoniddin Marg'inoniy Farg'ona viloyatining Rishton qishlog'ida tug'ilgan. To'liq ismi Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil Farg'oni

Roshidoniyl Margʻinoniy sifatida keltiriladi. Olimning tugʻilgan sanasi borasida manbalarda turlicha maʼlumotlar uchraydi. Burhoniddin Margʻinoniyning hayoti va ilmiy faoliyatiga oid tadqiqotlarda tugʻilgan yili koʻpincha hijriy 515-yil milodiy 1123-yil keltiriladi.

Burhonuddin al-Margʻinoniy – buyuk mutafakkir, islom fiqhining rivojlanishiga hissa qoʻshgan, faylasuf alloma, shoir, tavxid ilmi bilan shugʻullangan va islom olamida Shayx-ul islom unvoniga sazovor boʻlgan ulugʻ faqihdir.

Margʻinoniy hayotining asosiy qismini fiqh ilmiga bagʻishladi. Qurʼon, hadis ilmlarini mukammal egallab, bu sohada koʻplab asar yaratdi, islom fiqhining rivojlanishiga hissa qoʻshdi. Fiqh yoʻnalishi boʻyicha “Bidoyatul muftadiy”, “Kifoyatul muntahiy”, “Nashrul mazhab”, “Kitabul mazid”, “Manosikul haj”, “Mazid fi furuʼ al-hanafiy”, “Kitabut tajnis val-mazid” kabi kitoblar muallifi.

Burhoniddin Margʻinoniy fiqh boʻyicha asosiy asari «Bidoyat ul-muftadiy» (Boshlovchilar uchun qoʻllanma)dir. Burhoniddin Margʻinoniyning ushbu kitobi nazariy asar edi, shuning uchun oʻzi 8 jildli sharh — «Kifoyat ul-Muntahiy» (Yakunlovchilar uchun tugal taʼlimot)ni yozishga qaror qilgan. Keyinchalik bu kitobi asosida «Kitob al-Hidoya» (qisqacha nomi Hidoya — Toʻgʻri yoʻl)ni yaratadi.

Sharqda “Hidoya” nomli anʼanaviy yozish usuli boʻlgan. “Al-Hidoya” arabcha – toʻgʻri yoʻldan olib borish – ishonchli qoʻllanma maʼnosidadir [6;57–60]. Mashhur turk qomusiy olimi Kotib Chalabiy “Kashf azzunun” asarida berilgan maʼlumotga koʻra tarixda “Hidoya” nomi bilan bogʻliq yigirmadan ortiq asar mavjud. Bu asarlar falsafa, mantiq, tabiat, ilohiyot, fiqh, fanlari toʻgʻrisida boʻlgan. Burhoniddin Margʻinoniy “Hidoya” kitobini yozishda, nihoyatda muhim va munozarali masalalarni yoritmoqchi boʻlganda sahobalar va tobeʼinlar, asosiy mazhablarlar asoschilari, buyuk faqihlar ismlari, joʻgʻrofiy va tarixiy joylar, turli toifa qabilalar nomlarini kamoli ehtirom bilan tilga olgan.

Burhoniddin Margʻinoniy bu kitobida oʻsha zamonlarda musulmonlar duch keladigan dolzarb masalalar, jumladan oilaviy va ijtimoiy munosabatlar,

mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va mas'uliyatlariga taalluqli juda ko'p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtai nazaridan hal etib berdi. Mazkur kitob nafaqat Farg'ona vodiysida, balki butun islom sharqida ma'lum va mashhur bo'lib ketdi. Bu kitob fiqh ilmi bo'yicha eng aniq, izchil, mukammal asar bo'lgan. Undan asrlar davomida islom huquqshunosligi bo'yicha nufuzli huquqiy manba – asosiy qo'llanma sifatida foydalanilib kelinmoqda.

“Hidoya” to'rt juzdan iborat bo'lib, u alohida bob va bo'limlarga bo'lingan 57 ta kitobni tashkil etadi. “Hidoya” boshqa manbalardan o'zining mantiqiy ketma-ketligi va mavzular joylashi va mavzular sharhlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Burhonuddin al-Marg'inoniyning “Hidoya” asari islom huquqshunosligining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va o'chmas iz qoldirgan.

Kitobning birinchi juzi besh kitobdan iborat bo'lib, u namoz, ro'za va zakotga bag'ishlangan. Ikkinchi juzga 36 bo'lim nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo'qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalar kiritilgan.

Uchinchi juz 36 bob va 37 bo'limdan iborat bo'lib, oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o'tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da'vo, iqror bo'lish, sulh, birishda pul bilan sherik bo'lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik, majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo'lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o'rin olgan.

To'rtinchi juzda esa shafolat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog'dorchilik xususida shartnoma, qurbonlikka so'yiladigan jonzod haqida, umuman qurbonlik qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o'zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to'lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan.

Kitobning ikkinchi juzi oila masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ushbu jild 60 bobda, nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini

aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik va vaqf huquqi kabi masalalari yoritilgan.

“Nikoh kitobi” bo‘limida oila muqaddasligining Islomdagi huquqiy maqomi, kishilar o‘rtasidagi ijobiy emotsional aloqalar va mustahkam oila qurishning Islom dinidagi muhim shartlari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Shuningdek nikohlanayotgan tomonlarning huquq va majburiyatlari, er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarning huquqiy asoslari, farzandlarni nafaqa bilan ta’minlash va bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanishdagi haq-huquqlarning shar’iy masalalari yoritilgan.

Nikoh kitobiga ko‘ra, nikoh “Iyjob” (taklif) va “qabul” (darak) so‘zlari vositasida bog‘lanadi [4;7]. Nikoh tuzilayotganda guvohlarning bo‘lishi shartligi, “guvohlarsiz nikoh nikoh emas”ligi [4;7] bayon qilinadi.

Yana ushbu kitobda nikohlanish harom qilingan ayollar masalasi ham yoritilgan bo‘lib, yigit o‘z onasiga, buvisiga, qizlariga, nabirasi, evarasi, chevarasiga, opa-singlisiga, opa-singlisining qizlariga, aka-ukasining qizlariga, ammasi va xolasiga, qaynonasi (xotining onasiga) o‘gay qiziga, otasi va bobolarining xotinlariga, kelini (o‘g‘ilning xotini)ga nabiralarining xotinlariga, emizgan onasi va emikdosh opa-singlisiga, ikki opa-singilni bir vaqtda nikohga olish harom qilingan nikohlar sirasiga kiradi. Ayol uning ammasi yoki xolasi yoki aka-ukasining qizi yoki opa-singlisining qizi bilan bir vaqtda nikohlanmaydi [4;21]. Farg‘ona vodiysi aholisi sunniylikning Imom A‘zam mazhabiga amal qilishi, vodiya Islom diniga e’tiqod qiluvchilar soni ko‘pligi hisobga olinganda, yuqoridagi holatlar vodiy oilalarini tartibga solinishida amal qilinadi.

Ushbu kitobda valiylar va kufu’lar, nikohda tenglik huquqi, nikoh bitimini tuzishda (birovga) vakolat berish va boshqasi (vakolat berilmagan kishining nikoh bitimini tuzish) hususida, mahr masalalari, razoat (emish, emizish) ning fiqhiy masalalari bayon etiladi. Vodiy aholisi musulmonlari Islom ta’limotida keltirilgan ilohiy ko‘rsatmalarga qat’iy amal qilib yashashni o‘zlariga sharaf deb bilganlar. Shu sababdan ham ushbu kitob vodiy oila munosabatlarini tartibga solinishida keng qo‘llanilib kelinmoqda

“Hidoya” kitobining ikkinchi qismi taloq va uning turlariga bag‘ishlangan. Ushbu kitobdan taloqning rukni (erning og‘zidan chiqadigan taloq so‘zi), taloqning sababi, taloqning sharti, taloqning hukmi haqidagi ma’lumotlarni bilish mumkin. Taloq kitobida: sunnatga muvofiq taloq, balog‘atga yetmagan bola, majnun, majbur qilingan va mast kimsalarning talog‘i, taloqni tushurish (amalga oshirish) taloqni zamonga bog‘lab aytish, taloqni ayollarga bog‘lab aytish, taloqni biror narsaga o‘xshatish va uni sifatlash, jinsiy yaqinlik qilishdan oldin berilgan taloq, kinoya so‘zlari bilan taloq berish, taloq qilishni boshqa kishiga topshirish, ayolga o‘zini taloq qilish ixtiyorini berish, taloq qilishni xohlash, taloqdagi qasamlar, taloqda istisno qilish, bemor kishining taloq qilishi haqida, raj‘at qilish, taloq qilingan ayol (yana) halol bo‘lib qoladigan o‘rinlar, iylo, xulu’, zihor (zihor – halol bo‘lgan xotinini abadiy harom bo‘lgan ona, singil, xola va amma singari ayolga o‘xshatishdir), zihorning kafforati, li‘on, idda, motam tutish, nasabni aniqlash, farzandni qaramoqqa olish, taloq qilingan ayolning (farzandi bilan shahardan) chiqish, nafaqa masalalari yoritilgan.

Xulosa qilish mumkinki, Islom dinida taloqqa ruxsat berilgan, u ma’lum bir adad bilan chegaralanib, bu borada mo‘tadil yo‘l tutish kerakligini anglatadi. Islom dinida taloq qilish huquqi erkak kishiga berilgan. Ayol kishining tabiatan jahli tez chiqib, ehtirosiga berilgan holda shoshib xulosa chiqarib qo‘yishi inobatga olinib, taloq qilish huquqi berilmagan.

“Hidoya”ning uchinchi kitobi I’toq (I’toq – bir kishining ustidan valiy bo‘lishga, qozilik qilishga loyiq bo‘lish) – qul ozod qilish kitobidir. Ushbu kitobda xojaning ixtiyorisiz qulni ozod qilish, ikki quldan birini ozod qilish, qul ozod qilish bilan qasam ichish, haq evaziga qul ozod qilish, mudabbar qilish (mudabbar – qulning ozod bo‘lishiga dalolat qiluvchi sarih lafzlar orqali inson vafotidan keyin qul ozod bo‘lishini vojib qilish) masalalari bayon qilingan. Qullarga ham Islom shariatida oila a‘zolarining bir vakili sifatida qaralganligi sababli fiqh kitoblarida qullarga oid masalalar ham oilaga aloqador hukmlar doirasiga kiritilgan. Ushbu manbadan Markaziy Osiyoga rus sud tizimi kirib kelgunga qadar qozilar, din ulamolari fiqhiy masalalarda foydalangan.

Burhoniddin Margʻinoniyning ilmiy merosi hozirda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Jahondagi koʻp oliy oʻquv yurtlarida musulmon huquqshunosligi Burhoniddin Margʻinoniyning fiqh taʼlimoti asosida oʻrganiladi. Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan soʻng uning ilmiy merosini har tomonlama chuqur oʻrganish, asarlarini chop etish ishlariga katta eʼtibor berila boshlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Юлдашева Ф.Х. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиликларнинг ўзига хос хусусиятлари: Фалсафа фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 21 б.
2. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. –Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004.
3. Наливкин В. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы / – Казан: Типография Императорского университета, 1986 г.
4. Margʻinoniy B. “Hidoya” Sharh bidoyatil mubtadi. Muammolar qismi. Ikkinchi jild. – Toshkent: Hilol nashr, 2025.
5. Мўминов А.Қ. Ҳанафий уламоларининг марказий Мовароуннахр шаҳарлари ҳаётида тутган ўрни ва роли (II-VII/VIII-XIII асрлар): Тарих фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент: ТИУ, 2003.
6. Elova D., Sharipova P. “Hidoya”– Burhoniddin Margʻinoniyning shoh asari. //Journal of Science, Research and Teaching Vol. 3, No. 11, Nov - 2024 ISSN: 2181-4406. 57-60 b.
7. www.ziyo.uz